



**MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR
RIVOJLANTIRISH VA XORIJIY TAJRIBALAR**

Assistent., N.T. Doniyorov,
Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU
[**ilmiyizlanuvchi@gmail.com**](mailto:ilmiyizlanuvchi@gmail.com)

Annotatsiya: ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi rivojlanishining xorijiy tajribalari va mamlakatimizda keyingi yillarda shu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar o‘rganilgan. Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunchilik sohalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, barqaror o‘sish, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligining rivojlanishi.

**УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В
НАШЕЙ СТРАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ**

Помощник, Н.Т. Дониёров,
Ташкентский государственный аграрный университет, ТГАУ
[**ilmiyizlanuvchi@gmail.com**](mailto:ilmiyizlanuvchi@gmail.com)

Аннотация: в статье рассматривается зарубежный опыт развития сельского хозяйства и работа, проводимая в этом направлении в нашей стране в последние годы. Были также затронуты направления законодательства, принятые нашим государством.

Ключевые слова: сельское хозяйство, фермерство, животноводство, устойчивый рост, производство, развитие сельского хозяйства.

**SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN OUR
COUNTRY AND FOREIGN EXPERIENCES**

Assistant., N.T. Doniyorov,
Tashkent State Agrarian University, TDAU

ilmiyizlanuvchi@gmail.com

Abstract: *in this article, the foreign experiences of agricultural development and the work being carried out in this direction in the following years in our country are studied. The areas of legislation adopted by our country were also touched upon.*

Keywords: *agriculture, farming, animal husbandry, sustainable growth, production, agricultural development.*

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurs-tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyotning bugungi darajasida, mahsulot ishlab chiqarish hamda u bilan bog'liq ma'lumotlar bazasini kengayib borishi, resurslar cheklanganligi muammosining tobora keskinlashayotganligi iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda axobort texnologiyalari hamda turli matematik, ekonometrik usullardan foydalanishni talab qilmoqda. Biroq iqtisodiy jarayonlarning ko'plab omillar ta'siri ostida sodir bo'lishi, ular ta'sirini o'rganish masalalari modelning murakkablik darajasini tanlash muhim muammolardan biri sifatida qaraladi, chunki barcha omillarni qamrab olish imkoniyatining cheklanganligi, boshqa tomondan murakkablik bilan modelning ishlashini tushunish orasida teskari bog'liqlikning mavjudligi uni ishlab

SJIF:5.219

chiqishda chegaralanishiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan modelning murakkablik darajasini aniqlikni oshirishga xizmat qiladi. Hozirda yuqorida keltirilgan muammoni bartaraf etish dunyo iqtisodchi olimlari oldida turgan, o'z yechimini kutayotgan masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bo'yicha ulkan salohiyatga ega. Bozorlarimiz to'kin, xalqimiz rizqi mo'l-ko'l bo'lishidan tortib, eksportdan qo'shimcha daromad topishgacha bo'lgan juda ko'p masalalar shu yo'nalish rivojiga bog'liq. Lekin uzoq yillar davomida agrar sohaga yetarlicha e'tibor berilmadi. Na bozor iqtisodiyoti, na yerga munosabat, na manfaatdorlik bor edi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"si tasdiqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda iqtisodiy tatqiq etish metodologiyasi, tizimli tahlil, taqqoslash, ekspert baholash, iqtisodiy-statistik kabi iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etish usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish qishloq joylarida hayot sifatini yaxshilash, bugungi va kelajak avlodlar uchun zaruriy miqdordagi oziq-ovqat ta'minotini shakllantirish, fermer va dehqon xo'jaliklari uchun etarli daromadga ega bo'lish imkoniyatini ta'minlashni anglatadi. Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, kelajak uchun ishlab chiqarish quvvatlarini ta'minlash va saqlash, atrof-muhitga zarar etkazmasdan, tabiiy resurslarga xavf solmasdan samaradorlikni oshirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bu mahalliy bilimlarni hurmat qilish va e'tirof etish, tabiiy resurslarni boshqarishni shakllangan mahalliy usullari, kelajak avlod istiqboliga ziyon etkazmasdan hozirgi avlod imkoniyatlarini targ'ib qilish uchun harakatlarni talab qiladi.

Binobarin, iqtisodiy va ekologik barqarorlik, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyati samaradorligini ta'minlash, kelajak avlod uchun ishlab chiqarish salohiyati, yaxshilangan oziq-ovqat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik kabilar rivojlanayotgan mamlakatlarning qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muhim elementlari hisoblanadi. Bugungi kunga qadar qishloq xo'jaligini rivojlantirishning qator nazariyalari shakllangan bo'lib, tadqiqotimizning mazkur paragrafida ularning rivojlanish evolyutsiyasini tahliliy qarab chiqamiz. Ushbu nazariyalarning asosiy va umumiy maqsadi insonlarning moddiy va ijtimoiy farovonligini oshirish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan bu ko'pincha



atrof-muhit va jamiyat, aholi farovonligini yaxshilashga kompleks yondashuv sifatida qaraladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish jarayonidagi birinchi qadam oldingi yoki an'anaviy jamiyatlardagi kabi qishloq xo'jaligini statik, ya'ni o'zgarmas deb qarashdan voz kechish bo'ldi. Biroq, qishloq xo'jaligini rivojlantirish muammosi - statik qishloq xo'jaligini zamonaviy dinamik sektorga aylantirish emas, balki soha mahsuloti va hosildorligi o'sish sur'atlarini iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida boshqa tarmoqlaridagi o'sish darajasiga mosligini ta'minlash hisoblanadi.

Shu sababli, qishloq xo'jaligini rivojlantirish jarayonini mazmun nuqtai nazaridan oldingi yoki an'anaviy jamiyatdagi kabi statik deb qarashdan voz kechish kerak. Demak, qishloq xo'jaligini rivojlantirish nazariyasi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1,0 foiz yoki undan kam bo'lgan o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan mamlakatlardan to yillik o'sishi 4,0 foiz va undan oshiq o'sish darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar qishloq xo'jaligi o'sishining dinamikasi yoki o'zgaruvchan o'sish manbalari to'g'risida tushuncha berishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha adabiyotlarda bir qancha modellar keltirib o'tilganini ko'rishimiz mumkin;

-  *chegaraviy model;*
-  *tabiatni muhofaza qilish modeli;*
-  *urbanizatsiya va sanoatlashish ta'siri modeli;*
-  *diffuzion model;*
-  *yuqori rentabellikni ta'minlash modeli.*

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish modellari evolyutsiyasi tahlili natijalariga qaraydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi o'sishining ta'siri va paydo bo'lishi 60-yillardagi sanoatlashtirish va iqtisodiy o'sish uchun juda muhim ahamiyatga ega, ammo qishloq xo'jaligining o'sish jarayonining o'zi ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda e'tibordan chetda qolmoqda. Shuningdek, bugungi kunga qadar shakllantirilgan modellar tahlili ularning har biri o'ziga xos kamchilikarga ega ekanligini asoslamogda. Bu esa o'z navbatida ularni yanada takomillashtirish hamda rivojlantirish asosida yangi modellarni yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratish talab qiladi.

Hozirgi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligi oldida turgan muhim masala yangi ish o'rinlari tashkil etish, qo'shimcha ishlov berish va qayta ishlash, bog'dorchilik mahsulotlarini saqlash, xizmatlarni kengaytirish hisobiga qishloq joylarda bandlikni oshirish hisoblanadi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, hosildorlikni ko'paytirish orqali fermerlar va qishloq aholisining farovonligi izchil yaxshilanmogda, bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining hosildorligini oshirishga olib keladi. Ushbu yo'nalishda ijobiy natijalar mavjud, ularni kuchaytirish va yanada rivojlantirish kerak.

Asosiy fondlar va texnologik uskunalarni yangilashdagi texnik va texnologik kechikish, sohada axborotkommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi qishloq xo'jaligining eng jiddiy muammosi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining bir qator muammolariga fermerlik va umuman qishloq xo'jaligida milliy va xalqaro ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishning murakkabligi qayd etilgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish ko'p omillarga bog'liq, xususan qishloq xo'jaligi ishlab

SJIF:5.219

chiqarishining yangi texnologiyalari va jihozlaridan foydalanish, o'qitish, bilimlar, ko'nikmalar, ma'lumot oqimini kuchaytirish va boshqalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishchi xodim va mutaxassislar ma'lumoti, yoshi, tajriba va malakasi, ishga ijodiy yondashish qobiliyati kabi ko'rsatkichlar katta rol o'ynaydi. shu sababdan ham fermer xo'jaliklarini tashkil qilishda tender tanlovlarida ham bu ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi. Fermer xo'jaliklarini tashkil qilishda fermer xo'jaligi rahbari aynan yuqoridagi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi talab qilinadi, bu fikrimizcha to'g'ri yo'l hisoblanadi. chunki, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining keyingi taqdiri va taraqqiyoti ko'p jihatdan ular faoliyatiga bog'liq.

Lekin biz olib borgan kuzatishlarimiz natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, fermer xo'jaliklari rahbarlarining malakasi, bilim darajasi, ma'lumoti va bozor iqtisodiyoti haqidagi tushunchasi zamon talabiga to'liq javob bermaydi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida kadrlar va ularning intellektual salohiyatini oshirishni, bizningcha, kelajakda quyidagi tizimni shakllantirish orqali fermer xo'jalik rahbarlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish jarayonida menejment va marketing, kompyuter savodxonligi, muxandislik va agronomiya sohasi, qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va bozor haqidagi tushunchalar, soliq, bank va noqishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha kasbhunar maktablar va kadrlar tayyorlash hududiy markazlari, oliygohlar va kasbhunar kollejlari ko'magi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'z o'rnida bilimli, malakali va tajribali kadrlar ta'minoti fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, ularning

samaradorligini oshirish natijasida xo‘jalikning moliyaviy salohiyatini yuksaltirishga olib keladi.

Bundan tashqari respublikamiz dehqon va fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda o‘tgan davrda bir qancha muammolarga duch keldi. Hozirda ham ushbu muammolar dehqon va fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishida oqsoqligiga sabab bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz prezidentining bu sohada yangi yondashuv asosida dehqon va fermer xo‘jaliklari tomorqa yer egalarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini, shuningdek, qishloq xo‘jaligining ekin maydonlaridan foydalanish tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan muhim huquqiyme’yoriy hujjat qabul qilindi.

Ushbu me’yoriy hujjatda fermer xo‘jaliklarning asosiy qismi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bilan cheklangan, moddiytexnika resurslari bilan ta’minlash va xizmatlarni ko‘rsatish uchun tegishli zamonaviy infratuzilma mavjud emas, aksariyat fermer xo‘jaliklarning moliyaviy holati zamonaviy texnik uskunalar sotib olish hamda ilg‘or texnologiyalar va yangiliklarni joriy etishga imkon bermaydi, deb ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘tgan davr mobaynida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar xususiy mulk egasi bo‘lsada, ularga daromad keltiradigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha yetarli erkinlik berish, ekinlar turini o‘zi tanlash bo‘yicha imkoniyatlar yaratilmagan edi. Aksariyat yer maydonlari paxta va g‘alla ekinlari bilan band qilinganligi, boshqa turdagi mahsulotlar yetishtirishga ruxsat berilmaslik holatlari mavjud bo‘lib, bu natijada dehqon va fermer xo‘jaliklari imko niyatlarini cheklashga olib keldi.

Kelajakda agrar sohani rivojlantirish va yanada erkinlik berish maqsadida qabul qilingan me'yoriy hujjatda 2018-yil hosilidan boshlab fermer xo'jaliklarining yer maydonlaridan foydalanish samaradorligi har chorakda xalq deputatlari tuman kengashlarida muhokama qilinadi, dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa yer egalari ekiladigan maydon har oy fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida muhokama qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Xuddi shu vazifa yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni bekor qilish, qat'iy javobgarlik choralari ko'rish, samarasiz ishlatilgan, qishloq xo'jaligi ekinlarini to'liq ekmagan va o'z vaqtida qishloq xo'jaligini olib bormagan fermerlar, dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa egalari nisbatan amalga oshiriladi.

2022 yil 1 yanvardan boshlab ko'p tarmoqli faoliyatni o'zlashtirmagan fermer xo'jaliklari bilan ijaraga berish shartnomalari bekor qilinadi.

Hukumatga chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog'dorchilik, asalarichilik va qishloq xo'jaligining boshqa sohalarini rivojlantirish, shuningdek, fermer xo'jaliklarining samaradorligini oshirish bo'yicha qarorlar tayyorlash topshirildi. Hozirgi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligi oldida turgan muhim masala yangi ish o'rinlari tashkil etish, qo'shimcha ishlov berish va qayta ishlash, bog'dorchilik mahsulotlarini saqlash, xizmatlarni kengaytirish hisobiga qishloq joylarda bandlikni oshirish hisoblanadi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, hosildorlikni ko'paytirish orqali fermerlar va qishloq aholisining farovonligi izchil yaxshilanmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining hosildorligini oshirishga olib keladi. Ushbu yo'nalishda ijobiy natijalar mavjud, ularni kuchaytirish va yanada rivojlantirish kerak.

Asosiy fondlar va texnologik uskunalarni yangilashdagi texnik va texnologik kechikish, sohada axborotkommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi qishloq xo'jaligining eng jiddiy muammosi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining bir qator muammolariga fermerlik va umuman qishloq xo'jaligida milliy va xalqaro ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishning murakkabligi qayd etilgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish ko'p omillarga bog'liq, xususan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yangi texnologiyalari va jihozlaridan foydalanish, o'qitish, bilimlar, ko'nikmalar, ma'lumot oqimini kuchaytirish va boshqalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishchi xodim va mutaxassislar ma'lumoti, yoshi, tajriba va malakasi, ishga ijodiy yondashish qobiliyati kabi ko'rsatkichlar katta rol o'ynaydi. shu sababdan ham fermer xo'jaliklarini tashkil qilishda tender tanlovlarida ham bu ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi. Fermer xo'jaliklarini tashkil qilishda fermer xo'jaligi rahbari aynan yuqoridagi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi talab qilinadi, bu fikrimizcha to'g'ri yo'l hisoblanadi. chunki, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining keyingi taqdiri va taraqqiyoti ko'p jihatdan ular faoliyatiga bog'liq.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida kadrlar va ularning intellektual salohiyatini oshirishni, bizningcha, kelajakda quyidagi tizimni shakllantirish orqali fermer xo'jalik rahbarlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish jarayonida menejment va marketing, kompyuter savodxonligi, muxandislik va agronomiya sohasi, qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va bozor haqidagi tushunchalar, soliq, bank va noqishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha kasbhunar mak tablar va kadrlar tayyorlash hududiy markazlari,

SJIF:5.219

oliygohlar va kasbhunar kollejlari ko‘magi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘z o‘rnida bilimli, malakali va tajribali kadrlar ta‘minoti fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, ularning samaradorligini oshirish natijasida xo‘jalikning moliyaviy salohiyatini yuksaltirishga olib keladi.

Bundan tashqari respublikamiz dehqon va fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda o‘tgan davrda bir qancha muammolarga duch keldi. Hozirda ham ushbu muammolar dehqon va fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishida oqsoqligiga sabab bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz prezidentining bu sohada yangi yondashuv asosida dehqon va fermer xo‘jaliklari tomorqa yer egalarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini, shuningdek, qishloq xo‘jaligining ekin maydonlaridan foydalanish tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan muhim huquqiymе’yoriy hujjat qabul qilindi.

Ushbu me’yoriy hujjatda fermer xo‘jaliklarning asosiy qismi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bilan cheklangan, moddiytexnika resurslari bilan ta‘minlash va xizmatlarni ko‘rsatish uchun tegishli zamonaviy infratuzilma mavjud emas, aksariyat fermer xo‘jaliklarning moliyaviy holati zamonaviy texnik uskunalar sotib olish hamda ilg‘or texnologiyalar va yangiliklarni joriy etishga imkon bermaydi, deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Xulosa va takliflar. O‘tgan davr mobaynida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar xususiy mulk egasi bo‘lsada, ularga daromad keltiradigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha yetarli erkinlik berish, ekinlar turini o‘zi tanlash bo‘yicha imkoniyatlar yaratilmagan edi. Aksariyat yer

SJIF:5.219

maydonlari paxta va g'alla ekinlari bilan band qilinganligi, boshqa turdagi mahsulotlar yetishtirishga ruxsat berilmaslik holatlari mavjud bo'lib, bu natijada dehqon va fermer xo'jaliklari imkoniyatlarini cheklashga olib keldi.

Kelajakda agrar sohani rivojlantirish va yanada erkinlik berish maqsadida qabul qilingan me'yoriy hujjatda 2018- yil hosilidan boshlab fermer xo'jaliklarining yer maydonlaridan foydalanish samaradorligi har chorakda xalq deputatlari tuman kengashlarida muhokama qilinadi, dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa yer egalari ekiladigan maydon har oy fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida muhokama qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Xuddi shu vazifa yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni bekor qilish, qat'iy javobgarlik choralari ko'rish, samarasiz ishlatilgan, qishloq xo'jaligi ekinlarini to'liq ekmagan va o'z vaqtida qishloq xo'jaligini olib bormagan fermerlar, dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa egalari nisbatan amalga oshiriladi. 2022 yil 1 yanvardan boshlab ko'p tarmoqli faoliyatni o'zlashtirmagan fermer xo'jaliklari bilan ijaraga berish shartnomalari bekor qilinadi.

Hukumatga chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog'dorchilik, asalarichilik va qishloq xo'jaligining boshqa sohalarini rivojlantirish, shuningdek, fermer xo'jaliklarining samaradorligini oshirish bo'yicha qarorlar tayyorlash topshirildi.

ADABIYOTLAR;

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni.

2. Jumaev I.K. Fermer xo‘jaliklari rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini ekonometrik bashoratlash. Iqt.fan.dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis.avtoref. – T.: 2011 – 43 b.

3. Xolmurotov F.S. “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal

tartibga solish usullari (Xorazm viloyati misolida). Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm. Dar. Olish uchun yozilgan dis.avtoref. – T.: 2021 – 60 b.